

**XALQ TA'LIMI TIZIMIDA RAHBAR XODIMLARNING  
MA'NAVIY QIYOFASI**

**Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova**

*Ilmiy rahbar, p.f.f.d (PhD), dotsent*

**Rauf Berdinazarovich Xudoyberdiyev**

*Toshentdagi Bucheon xalqaro universiteti 1-bosqich magistri*

*"Lider bo 'lish san 'atini o 'rgatib bo 'lmaydi,*

*buni faqat o 'rganish mumkin."*

**Xarold Jenin**

**Annotatsiya.** Ma'lumki, har qanday faoliyat turi boshqaruv asosiga quriladi, chunki shu faoliyatni amalga oshirishdan ko 'zlangan maqsadga erishish, bajariladigan vazifalami taqsimlash, ijrosini nazorat qilish, shuningdek, samaradorlikka erishish uchun shu faoliyatda ishtirok etuvchilar manfaatlarini himoya qilish, rag'batlantirish chora-tadbirlari boshqaruv jarayonida tashkil etiladi va muvofiqlashtiriladi. Bunda ayniqsa, rahbar xodimlarning ma'naviy qiyofasi muhim ahamiyat kasb etadi

**Kalit so'zlar.** Ma'naviy qiyofa, liderlik, axloqiy qadriyatlar, madaniyat, saviya, madaniy me'ros

Ma'lumki, barcha odamlar o'ziga xos xususiyatlarga, moyilliklarga va qiziqishlarga ega. Biz jamiyatda yashayotganimiz sababli, boshqalar bilan o'zaro munosabatimiz uzluksiz ravishda rivojlanib boradi. Umumiy maqsadlarga ega bo'lgan odamlar guruhlarga, jamoalarga birlashadilar. Jamoani yashash hududi va turmush tarzi bilan birlashtirilgan bir mamlakatning aholisi ham deb atash mumkin. Biroq, hech bir jamoa yetakchisiz mavjud bo'lolmaydi.

Rahbar – odamlarni umumiyligi maqsad sari yetaklovchi shaxs hisoblanadi va o'z qo'l ostidagi insonlarga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega hisoblanadi.

**Ma'naviy qiyofa tushunchasi**

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Insonning ma'naviy qiyofasi haqida haqida hukm chiqarganda uning ayrim jonbozliklarini emas, kundalik hayotini hisobga olish darkor, - degan edi fransuz faylasufi Paskal.

Ma'naviy qiyofa rahbar xodimlarning ichki dunyosi, axloqiy qadriyatları va jamiyat oldidagi mas'uliyatini ifodalaydi. Bu tushuncha bir qator komponentlardan tashkil topgan. Bular:

**Axloqiy qadriyatlar:** Axloqiy qadriyatlarga adolat, mas'uliyat, halollik, tenglik va hurmat kiradi. Adolat, halollik, va'daga sodiqlik kabi tamoyillar rahbarning xatti-harakatlari va qarorlarida namoyon bo'ladi.

**Madaniyat va saviya:** Ma'daniyat inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. **Saviya** - shaxs, narsa yoki hodisaning sifat, taraq-qiyot darajasi Rahbarning umumiy madaniyati, so'zlashuv va muloqot qobiliyati, shuningdek, intellektual darajasi rahbarlik jarayonida muhim hisoblanadi

**Liderlik fazilatlari:** Jamoadagi o'zaro hurmat va hamkorlikni ta'minlash, o'rnak bo'lish. Boshqaruvda quyidagi fazilatlar muhim :

- Yetakchilik qobiliyati
- Strategik fikrlash va rahbarlik
- Texnik va texnologik malakalar
- Munosabatlar o'rnatish va jamoa tashkil qilish qobiliyati
- O'zini ko'rsata olish va muloqot qilish qobiliyati

Mutaxassislar fikricha, mukammal rahbar ishontira olish, o'zini va o'z fikrlarini ko'rsata olish, eng katta doiradagi mafaatdor shaxslar bilan intellektual muloqotda bo'la olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

### **Xalq ta'limi tizimidagi rahbarlarning roli**

Xalq ta'limi tizimida rahbarlarning vazifalari faqat tashkilot boshqaruvi bilan cheklanib qolmaydi. Ular:

1. **O'qituvchilar va talabalarga o'rnak bo'lish:** Rahbarning ma'naviy qiyofasi jamoa a'zolarining motivatsiyasini oshiradi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

**2. Axloqiy muhit yaratish:** Ta'lim muassasasida insonparvarlik va adolatga asoslangan axloqiy muhit shakllantirish.

**3. Qadriyatlarni targ'ib qilish:** Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishda rahbarning bevosita ishtiroki zarur.

Ammo bular rahbarda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Ma’naviy qiyofani shakllantirish bir qator omillarga bog‘liq bo‘ladi. Rahbar xodimlarning ma’naviy qiyofasini rivojlantirish quyidagi omillarga bog‘liq:

- **Oila va shaxsiy tarbiya:** Rahbarning bolalikdan shakllangan axloqiy qadriyatlari.
- **Professional malaka:** Doimiy o‘qish va o‘zini rivojlantirish orqali kasbiy saviyani oshirish.
- **Jamiyat va muhit ta’siri:** Ta’lim tizimidagi rahbarlar jamoaviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.
- **Madaniy meros:** Milliy an'analar va urf-odatlarni rahbar faoliyatiga integratsiya qilish.

Qisqa qilib aytganda xalq ta’limi tizimidagi rahbarlarning ma’naviy qiyofasi butun ta’lim tizimining muvaffaqiyatini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi. Shuning uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Xulosa va tavsiyalar

Xalq ta’limi tizimidagi rahbarlarning ma’naviy qiyofasi butun ta’lim tizimining muvaffaqiyatini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi. Shuning uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Rahbar xodimlar uchun muntazam ravishda ma’naviy-ma’rifiy trening va seminarlar tashkil qilish.
- Ta’lim muassasalarida axloqiy qoidalar kodeksini ishlab chiqish va joriy etish.
- Rahbarlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash va rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish.
- Rahbar xodimlar faoliyatini baholashda ularning ma’naviy qiyofasini inobatga olish.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

Shu yo‘nalishdagi izlanishlar rahbarlarning shaxsiy va kasbiy o‘sishiga ko‘maklashib, xalq ta’limi tizimining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. М. Йўлдошев, Н.Назарзода. Раҳбарлик психологиясида ахлоқ. Т.: “Sharq”, 2010 y. -192 b
2. Abdullaevich, Y. S. (2024). BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIDA LIDERLIK MASALASINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI. Scientific Impulse, 2(18), 342-345.
3. Yo‘ldoshev, S. R. O. G. L. (2022). YOSH RAHBAR KADRLARDA LIDERLIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI. LIDERLIKNING UMUMIY QONUNIYATLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 193-199.
4. Sadullayev, O. (2023). XALQ TA’LIMI TIZIMIDA RAHBAR XODIMLARNI ISH FAOLIYATI VA MA’NAVIY QIYOFASI. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 5(Special issue), 45-48.
5. Gaynazarova G.A., Baratova Sh. M. Zamonaviy rahbar imidjiga qo‘yiladigan talablar Raqamli pedagogika: holati va rivojlanish istiqbollari *xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya* Nizomiy nomidagi TDPU-2024 yil 81-83 b